

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
2024-2025 o‘quv yili
I-chorak
choraklik summativ baholash
test savollari.

8-sinf

I-variant

1-20 Matematika, 21-35 Ona tili va adabiyot, 36-45 Kimyo
 (B-bilish; Q-qo‘llash; M-mulohaza ga oid test savollari)

O‘quvchi F.I.SH).....

1. **(B 1 ball)** $a = 2$ va $b = -1$ da algebraik ifodalarning qiymatlarini toping va mos to‘g‘ri javoblarni mos keltiring.

I. $3a + 2b$	A. 9
II. $2a + 3b$	B. -1
III. $(a - b)^2$	C. 4
	D. 1

- A) I-D, II-A, III-B
 B) I-C, II-D, III-A

- C) I-D, II-A, III-C
 D) I-C, II-D, III-D

2. **(B 1 ball)** Amalni bajaring: $\frac{1}{ab} + \frac{1}{bc}$

- A) $\frac{c+a}{abc}$ B) $\frac{2}{abc}$ C) $\frac{a+c}{b}$ D) $\frac{c+a}{ab^2c}$

3. **(B 1 ball)** $y = \frac{k}{x}$, $k \neq 0$ funksiya grafigi uchun quyidagi tasdiqlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

No	Tasdiqlar	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
1	Funksiya grafigi giperbola deyiladi		
2	Funksiya grafigi $k > 0$ da birinchi va ikkinchi choraklarda yotadi		
3	Funksiya grafigi ikkita tarmoqqa ega		

- A) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri;
 C) noto‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri;

- B) to‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri;
 D) to‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri;

4. (Q 4 ball) Kattasi $2p + 1$ ga teng bo'lgan uchta ketma-ket kelgan toq natural sonlar yig'indisini toping.

- A) $6p + 3$ B) $6p - 5$ C) $6p - 3$ D) $6p + 8$

5. (Q 4 ball) Kasrni qisqartiring:

$$\frac{4y^2 - 4y + 1}{4y^2 - 1}$$

- A) $\frac{1}{2y-1}$ B) $\frac{2y+1}{2y-1}$ C) $\frac{2y-1}{2y+1}$ D) $\frac{1}{2y+1}$

6. (Q 4 ball) Quyidagi kasrlar uchun umumiy maxrajni toping:

$$\frac{1}{6b^3}; \frac{a^2 + b^2}{9a^2b^2}; \frac{3 - a^2}{18ab^2}$$

- A) $9a^2b^3$ B) $18a^2b^3$ C) $27a^3b^3$ D) $54a^2b^2$

7. (Q 4 ball) Algebraik kasrlarni qo'shing:

$$c - 1 - \frac{c^2}{c - 1}$$

- A) $\frac{-2c+1}{c-1}$ B) $\frac{-2c-1}{c-1}$ C) $\frac{2c^2-2c+1}{c-1}$ D) $\frac{-2c^2-2c+1}{c-1}$

8. (Q 4 ball) Amallarni bajaring:

$$\frac{35xy}{8y^2} \cdot \frac{16x^2y^3}{21x^4y}$$

- A) $\frac{10y}{3x}$ B) $\frac{10x}{3y}$ C) $\frac{3y}{10x}$ D) $\frac{3x}{10y}$

9. (Q 4 ball) Amallarni bajaring:

$$\frac{a^2 - 25}{a^2 - 3a} : \frac{a + 5}{9 - a^2}$$

- A) $-\frac{(a+5)(a+3)}{a}$ B) $\frac{(a-5)(a+3)}{a}$ C) $-\frac{(a-5)(a-3)}{a}$ D) $-\frac{(a-5)(a+3)}{a}$

10. (Q 4 ball) Amallarni bajaring:

$$\left(1 + \frac{a-b}{a+b}\right) : \left(2 + \frac{2b}{a-b}\right)$$

- A) $\frac{2a-b}{a+2b}$ B) $\frac{a+b}{a-b}$ C) $\frac{a+2b}{2a-2b}$ D) $\frac{a-b}{a+b}$

11. (Q 4 ball) Hovuz birinchi quvur orqali a soatda, ikkinchisi orqali b soatda to'ladi.

Agar ikkala quvur bir vaqtda ochib qo'yilsa, hovuz $\frac{3}{4}$ qismi necha soatda to'ladi?

- A) $\frac{ab}{4(a+b)}$ B) $\frac{4ab}{3(a+b)}$ C) $\frac{3ab}{4(a+b)}$ D) $\frac{4ab}{a+b}$

12. (M 5 ball) $y = \frac{3}{x}$ funksiya grafigidan $y = \frac{3}{x+3} - 3$ funksiya grafigini hosil qilish uchun quyidagi harakatlardan qaysi birini amalga oshirish kerak?

- A) Ox o'q bo'ylab o'ngga 3 birlik va Oy o'q bo'ylab 3 birlik pastga surish
B) Ox o'q bo'ylab chapga 3 birlik va Oy o'q bo'ylab 3 birlik pastga surish
C) Ox o'q bo'ylab o'ngga 3 birlik va Oy o'q bo'ylab 3 birlik yuqoriga surish
D) Ox o'q bo'ylab chapga 3 birlik va Oy o'q bo'ylab 3 birlik yuqoriga surish

13. (B 4 ball) Parallelogrammning ikki tomoni nisbat 6: 4 ga, perimetri esa 40 cm ga teng. Parallelogrammning katta tomoni uzunligini toping.
A) 8 cm B) 12 cm C) 24 cm D) 16 cm

14. (B 4 ball) To'g'ri to'rtburchakning tomonlari 32 cm va 28 cm ga teng. Perimetri shu to'g'ri to'rtburchakning perimetriga teng bo'lgan kvadratning tomoni uzunligini toping.
A) 24 cm B) 15 cm C) 30 cm D) 12 cm

15. (Q 5,2 ball) Muntazam oltiburchak uchun quyidagi tasdiqlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.


No	Tasdiqlar	to'g'ri	noto'g'ri
1	Ichki burchagi 120° ga teng		
2	Ichki burchaklari yig'indisi 1080° ga teng		
3	Bir uchidan chiquvchi diagonalari soni 4 ga teng		

A) to'g'ri, noto'g'ri, noto'g'ri; B) to'g'ri, to'g'ri, to'g'ri;
C) noto'g'ri, noto'g'ri, noto'g'ri; D) to'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri;

16. (Q 5,2 ball) Burchaklaridan biri 60° , kichik diagonali uzunligi 18 cm ga teng bo'lgan rombning perimetrini toping.
A) 72 cm B) 144 cm C) 36 cm D) 64 cm


17. (Q 5,2 ball) Trapetsiyaning asoslari 16 cm va 24 cm, yon tomonlari esa 5 cm va 9 cm. Kichik asosning uchidan katta yon tomoniga parallel to'g'ri chiziq o'tkazilgan. Shu parallel to'g'ri chiziq ajratgan uchburchakning perimetrini toping.
A) 20 cm B) 24 cm C) 18 cm D) 22 cm

18. (Q 5,2 ball) $OA = AA_1 = A_1A_2 = A_2A_3 = A_3A_4$ va $AB \parallel A_1B_1 \parallel A_2B_2 \parallel A_3B_3 \parallel A_4B_4$ (rasmga qarang). Agar $B_1B_4 - B_3B_4 = 16$ cm bo'lsa, $OB_2 + B_1B_4$ ifoda qiymatini toping.



A) 40 cm B) 48 cm C) 56 cm D) 32 cm

19. (Q 5,2 ball) Rasmda tasvirlangan trapetsiya uchun $x + y + z$ ifodaning qiymatini toping.



- A) 22 B) 16 C) 18 D) 24

20. (M 6 ball) Teng yonli trapetsiyaning katta asosi 25 cm va perimetri 55 cm. Agar trapetsiyaning diagonali uning o'tkir burchagini teng ikkiga bo'lsa, trapetsiyaning o'rta chizig'i uzunligini toping.

- A) 17,5 cm B) 16 cm C) 18,5 cm D) 20 cm

21. (Bilish 2,5 ball) Bu uslub, ko'pincha, dialog shaklida bo'ladi. Unda adabiy nutqning og'zaki me'yorlariga qat'iy rioya qilish talab etilmaydi...

Ushbu ma'lumotlar adabiy nutqning qaysi uslubiga xos?

- A) publitsistik uslub C) rasmiy-idoraviy uslub
B) so'zlashuv uslub D) ilmiy uslub

22. (Qo'llash 4,5 ball) Muvofiqlashtiring.

1) ot	2) sifat	a) hamma	b) majburiy
3) son	4) olmosh	c) vaqt	d) ertalab
5) ravish	6) fe'l	e) hali	f) yuklanmagan
		i) boshqa	j) nim chorak

- A) 1 – i; 2 – b; 3 – d; 4 – a; 5 – j, e; 6 – f B) 1 – d; 2 – b; 3 – J; 4 – i; 5 – d, e; 6 – f
C) 1 – c; 2 – b; 3 – J; 4 – a; 5 – d, e; 6 – f D) 1 – f; 2 – b; 3 – J; 4 – a; 5 – d, e; 6 – c

23. (Qo'llash 4,5 ball) Berilgan birliklar orasidan yordamchi so'zlarga oidlarini aniqlang. 1) tufayli; 2) so'nggi; 3) haqida; 4) axir; 5) balki

- A) 3, 4, 5 B) 2, 3, 4, 5 C) 1, 2, 3 D) 1, 3, 4, 5

24. (Qo'llash 4,5 ball) Modal so'z ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A) Balki, ushbu loyiha ishini amalda tatbiq etishni ham o'ylab ko'rarmiz.
B) Bu fikrim nafaqat ota-onalarga, balki o'quvchilarga ham ma'qul keldi.
C) Faridaning shubhasi o'rinli ekanligiga shubha bilan qarayapman.
D) Bizning jamoa g'olib bo'lishi shubhasiz.

25. (Bilish 2,5 ball) Biror fanga tegishli mavzu dalillar asosida yoritilib, unda tasviriy vositalardan deyarli foydalanilmaydi.

Ushbu ma'lumotlar inshoning qaysi turiga xosligini aniqlang.

- A) erkin mavzudagi insho B) ilmiy mavzudagi insho
C) adabiy insho D) adabiy-ijodiy insho

26. (Qo'llash 4,5 ball) Tarkibida teng bog'lanishli so'zlar mavjud bo'lgan gapni aniqlang.

- A) Yaltiragan narsaning hammasi ham oltin emas.
- B) Bu vaziyatda na kulishni, na yig'lashni bilasan.
- C) O'qigan o'qdan o'zar, o'qimagan turtkidan shoshar.
- D) Og'ziga kelganni demoq nodonning ishi.

27. (Qo'llash 4,5 ball) Berilgan parchadagi so'z birikmalarni aniqlang.

Hayot mendan ayamadi ne'matlarini...

- A) hayot mendan ayamadi
- B) mendan ayamadi, ne'matlarini ayamadi
- C) hayot ayamadi, mendan ayamadi
- D) hayot ne'matlarini ayamadi

28. (Bilish 2,5 ball) Berilgan birliklar orasidan qo'shma so'zlarni ajrating.

1) taklif qilmoq; 2) ixtiro qilmoq; 3) qotib kulmoq; 4) Markaziy Osiyo; 5) ajablanib qaramoq.

- A) 1, 3, 5
- B) 2, 3, 4
- C) 3, 4, 5
- D) 1, 2, 4

29. (Qo'llash 4,5 ball) Buvraxon Xolbeka va Kuntug'mishni tuyaning terisi ichiga joylab, otning dumiga bog'lab otni cho'l-jaziraga haydab yuborgandan keyingi voqealar keltirilgan qatorni aniqlang.

- A) Azbarxo'jani uchratib, u bilan "Qur'on"ni o'rta qo'yib do'st tutinadi.
- B) Kuntug'mish Xolbeka va egiz farzandlaridan ayrilib, devonalar kabi cho'l-u biyobonlarda sargardonlikda kezib yuradi.
- C) Xolbeka bilan Kuntug'mishning mashaqqatlarga bardoshi yetmay Buvraxonning huzuriga qaytishadi.
- D) Cho'lga haydalgan otning dumi uzilib tushgach oshiqlar joylangan tulupni quzg'un cho'qib teshadi.

30. (Qo'llash 4,5 ball) "Kuntug'mish" dostonidagi qahramonlar va ularning ta'rifini moslashtiring.

1. Xolmo'min	O'z jiyanlarini uyiga xizmatkorlikka olib kelib, ularga zolimlik qiladi.
2. Azbarxo'ja	Bu xudbin karvonboshi non va suv so'rab kelgan Kuntug'mishni quduqqa tashlab yuboradi. Xolbekani hiyla bilan olib ketib Buvraxonga topshiradi va mukofotlanadi.
3. Mohiboy	Olim sayyod tomonidan boqib olingan bu bola juda tezzabon, bosiqlikdan yiroq yigit edi.

- A) 1-noto'g'ri, 2-to'g'ri, 3-to'g'ri.
- B) 1-to'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-noto'g'ri.
- C) 1-noto'g'ri, 2-noto'g'ri, 3-to'g'ri.
- D) 1-to'g'ri, 2-to'g'ri, 3-noto'g'ri.

31. (Bilish 2,5 ball) Lutfiy ijodiga tegishli ma'lumotlar berilgan qatorni aniqlang.

- 1) Alisher Navoiy "Majolis un - nafa'is" tazkirasida Lutfiyning zamonasining "malik ul-kalom"i edi deya ta'riflagan.
- 2) Alisher Navoiy "Nasoyim ul muhabbat" tazkirasida Lutfiyning uzoq umr ko'rgani haqida hamda qabri Dehikanorda ekanligi haqida aytgan.
- 3) "Xoh inon, xoh inonma" radifli g'azaliga Boborahim Mashrab tazmin g'azal yaratgan.
- 4) "Ayoqingga tushar har lahza gisu" g'azalining har bir misrasi ziddanishlar (tazod)dan iborat.

A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 3, 4

32. (Qo'llash 4,5 ball) Ushbu bayt haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,

Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

A) Lirik qahramonning ayriliq kechasida sahargacha oh chekkani va ohi charxi falakka yetgani haqida aytilmoqda.

B) Lirik qahramonning saharda chekkan ohi (tutuni) charxi falakda kezib yurgan oying yuzini to'sib qo'ygani aytilmoqda.

C) Lirik qahramon charxi falakda kezib yurgan oyga murojaat qilish orqali o'z ma'shuqasiga dil izhorlarini izhor etmoqda.

D) Lirik qahramon oy yuzini yorining yuziga qiyos qilib, sahargacha oy yuzliga o'z izhorlarini bildirmoqda.

33. (Qo'llash 4,5 ball) Tuyuq mazmuni to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen,

Vah, qachon yetkaymen ul dilbanda men.

Bevafolarg'a meni qilding asir,

Sen menga sultonsen, ey dil, banda – men.

A) Meni bevafolarga asir qilding, shu sabab oh chekyapman. Ohim otashga aylanib sahrodagi giyohlarni qovjiratyapti.

B) Lirik qahramon yorning ishqig'i qalbini bitmaydigan yaraga aylantirganini aytib, qachon u dilbandga yetgaymen demoqda.

C) Men sening dastingdan ey, dil, banddaman, evoh, men qachon u dilbandga yetgayman? Ey dil, meni bevafolarga asir qilding, sen menga sultonsan, banda – men.

D) Charxi kajraftor dastidan noroziman. Chunki hijron qishidan yozga chiqq olmading. Har qancha u shohga qulluq yozganim bilan, meni bir yorliq (maktub) u yod etmaydi.

34. (Qo'llash 4,5 ball) Ushbu ruboiydan ajratib ko'rsatilgan misra mazmuni to'g'ri keltirilgan qatorni aniqlang.

Gardun gah manga jafu-u dunluq qildi,

Baxtim kibi, har ishta zabunluq qildi,

Gah kom sari rahnamunluq qildi,

Alqissa, base buqalamunluq qildi.

A) Ushbu ruboiy hasbi hol tarzda yozilgan. Unda taqdir lirik qahramonga xuddi baxti kabi shikast, xor-u zorlik yetkazgani haqida aytilmoqda.

B) Ushbu ruboiy hasbi hol tarzda yozilgan. Unda taqdirning shoirga nisbatan buqalamun kabi tusini o'zgartirib, rang-baranglik qilgani, ya'ni goh jabr-u jafu o'tkazib, goh siylagani haqida aytilmoqda.

C) Hasbi hol tarzida yozilgan ushbu ruboiyda taqdir jabr-sitam ko'rsatibgina qolmay, gohida maqsad sari yo'l ham ko'rsatganligi aytilmoqda.

D) Hasbi hol tarzida yozilgan ushbu ruboiyda taqdir lirik qahramonga ba'zan jafu-yu pastliklar, ba'zan quvonchli lahzalar hadya etgani haqida aytilmoqda.

35. (Mulohaza 5,5 ball) Navoiy qalamiga mansub ushbu baytning nasriy bayoni to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.

Kishi aybing desa, dam urmag'ilki, ul erur ko'zgu,
Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?

- A) Agar birovni xafa qilmaslikni, ko'nglini og'ritmaslikni istasang, aybingni aytganda o'ylab javob ber. Chunki ko'zgu ham qarshingda turib, aksingni ko'rsatadi-ku.
B) Yorning ko'zi ko'zgudir, sen dunyoga uning ko'zlari bilan qara. Shunda dunyo sening ko'z o'ngingda turfa ranglarda namoyon bo'ladi.
C) Kishi aybingni aytganda, damingni chiqarma, agar u xafa bo'lsa, ranjisa, ko'ngil haqqini qanday ado qilasan?
D) Birov sening aybingni yuzingga oshkor aytsa xafa bo'lma, u sen uchun oynadir. Agar oyna nafasing tufayli xira ko'rsatsa, kim sening ayblaringni ochiq ayta oladi.

36. (B 2,5 ball) Avagadro qonuni qanday agregat holatdagi moddalarda amal qiladi?

- A) Faqat qattiq moddalarda
B) Faqat gazlarda
C) Faqat suyuqliklarda
D) Ham qattiq moddalar, ham gazlarda

37. (B 2,5 ball) Atom yadrosi tarkibidagi zarralar massasi va zaryadini moslang

- 1 Neytron a 1, +1
2 Proton b 1, 0
 c 0, -1

- A) 1-a, 2-b B) 1-b, 2-a C) 1-c, 2-a D) 1-b, 2-c

38. (B 2,5 ball) Argonning nechta elektronlar bilan to'lgan qavati mavjud?

- A) 1 B) 4 C) 3 D) 2

39. (Q 4,5 ball) Elementlarni massa ulushlariga asoslanib kislotaning eng oddiy formulasini aniqlang.

H – 1,58%; N – 22,22%; O – 76,20%

- A) N_3O_2 B) HNO_2 C) N_2O_5 D) HNO_3

40. (Q 4,5 ball) Cho'kma hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladigan reaksiyani aniqlang.

- A) $NaOH + HCl = NaCl + H_2O$ B) $2H_2 + O_2 = 2H_2O$
C) $BaCl_2 + Na_2SO_4 = BaSO_4 + 2NaCl$ D) $Fe + 2HCl = FeCl_2 + H_2$

41. (Q 4,5 ball) Berilgan oksidlarni (a-d) universal indikatorning rangiga (1-3) muvofiqlashtiring.

1-qizil	2-sariq	3-ko'k
---------	---------	--------

a)azot (V) oksidi, b)kalsiy oksidi, c) fosfor (V) oksidi, d) vodorod oksidi

- A) 1-a 2- d 3- b B) 1-c 2- a 3- b
C) 1-a 2- b 3- d D) 1-b 2- c 3- d

42. (Q 4,5 ball) Kimyoviy elementning davriy sistemadagi o'rni bilan uning atomidagi elektron va neytronlar soni o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlang.

1) 2-davr, IV grupp	a. 13, 14
2) 4-davr, II (a) grupp	b. 20, 20

3) 2-davr, VII grupp	c. 9, 10
4) 3-davr, III grupp	d. 6, 6

- A) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a B) 1-d, 2-a, 3-b, 4-c
 C) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c D) 1-c, 2-b, 3-a, 4-d

43. (Q 4,5 ball) $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6$ elektron formulasiga qaysi element atomi yoki ioni muvofiq keladi?

- A) Ar, Cl^- , S^{-4} B) Ar, Cl^+ , Ca^{2+} C) Ar, Cl^- , Ca^{2+} D) K^+ , Ca^2 , Na


44. (Q 4,5 ball) Jadvalda beshta atomning tuzilishi ko'rsatilgan.

Atom	Neytronlar soni	protonlar soni
V	10	9
W	8	8
X	6	6
Y	9	9
Z	8	6

Qaysi ikki juft atom izotop hisoblanadi?

- A) V va W, X va Y B) V va Y, X va Z
 C) W va X, Y va Z D) W va Y, X va Z

45. (M 5,5 ball) No'malum P va Q atomlarini elektron, proton va neytronlarni aniqlang.



- A) P-19, 19, 20; Q- 8, 8, 8 B) P-19, 19, 20; Q- 18, 18, 22
 C) P-20, 19, 20; Q- 11, 11, 11 D) P-20, 20, 20; Q- 10, 10, 10



PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO
 BAHOLASH ILMIY-AMALIY
MARKAZI